**“O’zbekiston Respublikasi fuqaro va eksperimental aviatsiyasi aerodromlariga sertifikat berish”**
**Davlat xizmati reglamenti**

## 1. Xizmat tavsifi (paspot)

1.1 Xizmat nomi

| |
|---|
| O’zbekiston Respublikasi fuqaro va eksperimental aviatsiyasi aerodromlariga sertifikat berish |

1.2. Xizmat natijasi

| |
|---|
| O’zbekiston Respublikasi fuqaro va eksperimental aviatsiyasi aerodromi Sertifikati |

1.3. Xizmatni ko‘rsatuvchi organlar va blankalar olish manzili

| |
|---|
| O‘zbekiston Respublikasi Parvozlar xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (keying o’rinlarda - «Davavianazorat» inspeksiyasi)<br>Manzil: 100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Nukus ko’chasi 73-b uy<br><br>Blankalarni «Davavianazorat» inspeksiyasining Aerodromlarni sertifikatlash va havodagi harakatni boshqarishni nazorat qilish bo’limidan (ASHHBNB) yoki «Davavianazorat» inspeksiyasining www.uzcaa.uz saytining «Blankalar/Formalar» qismidan olish mumkin. |

1.4. Huquqiy asoslar

| |
|---|
| 1. O‘zbekiston Respublikasi Havo ko’deksining 30 moddasi.<br>2. O‘zbekiston Respublikasi parvozlar xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 26 fevraldagi №90 sonli qarori.<br>3. «O‘zbekiston Respublikasi fuqaro va eksperimental aviatsiyasi aerodromlarini sertifikatlash qoidalari» (O‘zR AQ-160), «Davavianazorat» inspeksiyasi boshlig’ining 2007 yil 10 sentyabrdagi 138-son buyrug’i bilan tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2007 yil 29 oktyabrda 1734-son bilan davlat ro’yxatidan o’tkazilgan. |

1.5. Xizmatdan foydalanuvchilar

| |
|---|
| O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari |

1.6. Ijro muddati

Ariza olingan kundan boshlab 30 (o’ttiz) kun ichida

1.7. Ariza qabul qilinganligini tasdiqlash muddati

«Davavianazorat» inspeksiyasiga tushgan ariza va ilovalar tekshirilib, ariza beruvchiga 10 kundan oshmagan muddatda yozma ravishda ariza qabul qilinganligi yoki qaytarilganligi bildiriladi

**2. Xizmatdan foydalanuvchilarga ma’lumotlarni taqdim etish**

2.2. Keng ko‘lamda ma’lumot taqdim etish

O’zbekiston Respublikasi fuqaro va eksperimental aviatsiyasi aerodromlarining sertifikatlash tog’risidagi ma’lumotlar «Davavianazorat» inspeksiyasining www.uzcaa.uz saytidan amalga oshiriladi

2.2. So’rovga asosan beriladigan ma’lumotlar

O’zbekiston Respublikasi fuqaro va eksperimental aviatsiyasi aerodromlarining sertifikatlash tartibi tog’risidagi ma’lumotlarni taqdim etish:

- og’zaki ravishda, ish kunlari soat 9-00 dan 18-00 gacha 120-00-56 yoki 254-85-18 sonli telefon raqamlari orqali;
- yozma ravishdagi xujjatlar so’rovnomalar asosida beriladi.

Yozma ravishdagi so’rovnomalarni qabul qilish:

- «Davavianazorat» inspeksiyasisi devonxonasi ish kunlari soat 9-00 dan 18-00 gacha;
- kechay kunduz 254-14-82 yoki 255-53-37 sonli Faks raqamlari orqali;
- kechay kunduz caa@uzcaa.uz yoki orsan@uzcaa.uz elektron pochtasi orqali.

2.3 Xizmat ko'rsatish manzili tog’risida ma’lumotlarni taqdim etish

«Davavianazorat» inspeksiyasisining manzili:
100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Nukus ko’chasi 73-b uy.
Mo’ljal – Mirobod bozori ro‘parasida

2.4. Islatiladigan xujjatlar blankalari (shakllari)

| |
|---|
| Ariza va aerodrom Sertifikati shakllari, «O‘zbekiston Respublikasi fuqaro va eksperimental aviatsiyasi aerodromlarini sertifikatlash qoidalari»da (O‘zR AQ-160) belgilangan, Qoidalarning 1 va 6 ilovalari.<br>Ariza blankasini «Davavianazorat» inspeksiyasining ASHHBNBdan yoki «Davavianazorat» inspeksiyasi www.uzcaa.uz saytining «Blankalar/Formalar» qismidan, shuningdek mazkur reglamentning 2 ilovasidan olish mumkin. |

**3. Xizmat ko’rsatish**

3.1. Ish vaqti

| |
|---|
| «Davavianazorat» inspeksiyasining ish vaqti: Soat 9:00 dan 18:00 gacha, shanba, yakshanba va bayram kunlaridan tashqari |

3.2. Kutish shartlari

| |
|---|
| Kutish shartlari mavjud emas |

**4. Xizmat ko’rsatish jarayoni**

4.1. Zarur bo’lgan xujjatlar

| |
|---|
| Sertifikatsiya o’tkazish uchun ariza<br>«O‘zbekiston Respublikasi fuqaro va eksperimental aviatsiyasi aerodromlarini sertifikatlash qoidalari»ning (O‘zR AQ-160) 3-ilovasida ko’rsatilgan asoslovchi xujjatlar ro’yxati ilova qilinadi |

4.2. Arizani ko'rib chiqish uchun to'lov

| |
|---|
| Arizani ko'rib chiqish bepul |

4.3 Davlat xizmatlari ko'rsatish bosqichlari

| |
|---|
| «O‘zbekiston Respublikasi fuqaro va eksperimental aviatsiyasi aerodromlarini sertifikatlash qoidalari»da qoyidagi bosqichlar belgilangan:<br>- arizanini qabul qilish va uni ro’yxatdan o’tkazish;<br>- arizanini dastlabgi baholash va ariza rad qilinganda ariza beruvchiga yozma ravishda bildirish;<br>- asoslovchi xujjatlarni ekrpertiza qilish va aniqlangan kamchiliklar to’g’risida ariza beruvchiga yozma ravishda bildirish;<br>- ariza beruvchidan aniqlangan kamchiliklarning bartaraf etilganligi to’grisida xujjatlarni qabul qilib olish;<br>- sertifikatsiya tekshiruvini o’tkazish;<br>- aerodrom Sertifikatini berish (rad etish) |

4.4. Davlat xizmati ko‘rsatishning ichki idoraviy jarayonlari

«Davavianazorat» inspeksiyasi devonxonasi tomonidan arizani qabul qilib olish;

Devonxona tomonidan arizani «Davavianazorat» inspeksiyasi boshlig'iga ko'rsatma yozish uchun topshirish;

Devonxona tomonidan arizani «Davavianazorat» inspeksiyasining ASHHBNBga topshirish;

«Davavianazorat» inspeksiyasining ASHHBNBda arizani «O'zbekiston Respublikasi fuqaro va eksperimental aviatsiyasi aerodromlarini sertifikatlash qoidalari» (O'zR AQ-160) talablariga asosan ko'rib chiqish;

Ariza beruvchiga aerodrom Sertifikati berish rad etilganligi to'g'risida yozma ravishda xabar berish yoki aerodrom Sertifikatini berish

4.5. Xizmat ko'rsatilishini rad etish asoslari

Ariza beruvchiga quyidagi holatlarda aerodrom Sertifikatini berish rad etilishi mumkin:

"O'zbekiston Respublikasi fuqaro va eksperimental aviasiyasi aerodromlarini sertifikatlash qoidalari"ning (O'zR AQ-160) 12 va 14 bandlari talablari bajarilmaganda

**5. Sifatni ta'minlash**

5.1. Sifatsiz ko'rsatilgan xizmatdan shikoyat qilish

Ariza beruvchi Sertifikat berish rad etilishi to'g'risidagi qarori, shuningdek «Davavianazorat» inspeksiyasi mansabdor shaxsining xatti-xarakati (xarakatsizligi) ustidan qonun xujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga egadir.

Reglamentga 1 – ilova

# Davlat xizmati ko’rsatish sxemasi

Davavianazorat inspeksiyasi
*www.uzcaa.uz*
veb-saytiga kirish

↓

Bosh sahifa - Normativ huquqiy aktlar - O‘zbekiston Respublikasi fuqaro va eksperimental aviaciyasi normativ-huquqiy aktlari – 5 bo’lim - O’zR AQ-160ga kirish
O’zbekiston Respublikasi fuqaro va eksperimental aviasiyasi aerodromlarini sertifikatlash qoidalari bilan tanishish

«Bosh sahifa – davlat xizmatlari – Blankalar/Formalar» qismiga kirish
ariza shaklini yuklab olish, arizaani rasmiylashtirish, O’zbekiston Respublikasi fuqaro va eksperimental aviasiyasi aerodromlarini sertifikatlash qoidalari talablariga asosan arizaaga asoslovchi xujjatlarni ilova qilish

↓

O’zbekiston Respublikasi fuqaro va eksperimental aviasiyasi aerodromlarini sertifikatlash qoidalari talablariga asosan arizani «Davavianazorat» inspeksiyasiga kiritish

↓

arizani
qabul qilish

↓

O’zbekiston Respublikasi fuqaro va eksperimental aviasiyasi aerodromlarini sertifikatlash qoidalari talablariga asosan arizani va asoslovchi xujjatlarni «Davavianazorat» inspeksiyasiga mutaxassislari tomonidan ko’rib chiqish va baholash

↓

Aerodrom Sertifikatini berish
yoki yozma ravishda rad etish

Reglamenga 2 – ilova

"Davavianazorat" inspeksiyasi rahbariga

Sertifikatlashtirishni o‘tkazish uchun

ARIZA

______________________________________________________________ aerodromiga _______________________________________________berishingizni so‘raymann.
(sertifikatlashtirish hujjatinig nomi ko‘rsatilsin)

Aerodrom egasi __________________________________________________.________________
Aerodrom klassi ____________________________________________________________________.
Aerodrom magnit kursi _____________ XFAT (ИКАО) __________________________
toifasi bo‘yicha jihozlangan (zaruratga qarab to‘ldiriladi).
Aerodrom xalqaro parvozlar uchun mo‘ljallangan (zaruratga qarab to‘ldiriladi): ____________________________________________________________________.
Aerodrom ____________________________________________________________________
(sertifikatlash talablaridan iborat hujjat nomi ko‘rsatilsin)

____________________________________________________ talablariga javob beradi.

Aerodromning ________________________________________________ bandlari
(sertifikatlash talablaridan iborat hujjat nomi ko‘rsatilsin)

talablaridan chetga chiqishi o‘rniga parvozlarning mos ravishdagi xavfsizlik darajasini ta’minlaydigan tadbirlar kiritildi. Ilova: ushbu Qoidalarning 12-bandida ko‘rsatilgan hujjatlar.

M.O’. _______________________
Ariza beruvchining imzosi